

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



5A111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi negizidagi:

**5A111401- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)**

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus  
(ixtisoslik) fanlardan**

**D A S T U R**

Chirchiq- 2021 y.

### **Annotatsiya**

Dastur 5A111401- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5A111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishining 2018/2019 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

**Tuzuvchilar:** Yusupova M.A. - TV CHDPI Xorijiy tillar kafedrası mudiri

Maxmatqulov X.M. - TV CHDPI Xorijiy tillar kafedrası p.f.n., dotsent.v.b.

Dastur Gumanitar fanlar fakultetining 2021 yil 30 июндagi №11 sonli Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Mazkur dastur 2018-2019 o'quv yilida 5A111401- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kiruvchilar uchun kirish sinovlari dasturi, savolnomalari va baholash mezonlarini o'z ichiga olgan. Dastur, savolnoma va mezonlari oliy ta'limning 5A111400 – Xorijiy til va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi Davlat ta'lim standartiga asoslanib tuzilgan.

## ASOSIY QISM

Magistraturaga kirish imtihoni sinovlari xorijiy tilni egallashning 2 ko'nikmasini va tilning nazariy aspektlarini o'z ichiga oladi va 3 qismdan tashkil topadi.

**O'qish ko'nikmasi:** o'qish ko'nikmasi va strategiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan 1 ta matn va u asosida tuzilgan umumiy 2 ta topshiriqdan iborat bo'lib, har bir topshiriqqa 15 balldan, jami 2 topshiriq uchun 30 ball beriladi.

**Yozish ko'nikmasi:** Topshiriq yozma muloqatni tekshirishga yo'naltiriladi, imtihon topshiruvchi 250-280 so'zdan iborat insho (essay) yozadi va bu topshiriq uchun jami 25 ball beriladi.

**Nazariy bilimlar:** Berilgan nazariy savollarga yozma javob berish, javobda bakalavr yo'nalishida o'tilgan barcha nazariy fanlar (nazariy fonetika, nazariy grammatika, leksikologiya, stilistika va qiyosiy tipologiya)dan 3 ta topshiriq, har bir topshiriq uchun 15 balldan jami 45 ball beriladi.

## TIL KO'NIKMALARI BO'YICHA SINOVLAR TAVSIFI VA ULARNI O'TKAZISH TARTIBI

### O'qish ko'nikmasi

Ushbu qismning maqsadi imtihon topshiruvchining o'qish ko'nikmasini C1 (CEFR) bo'lgan darajada sinovdan o'tkazish va baholashdir. Bunda talabgor:

- Abstrakt va murakkab mavzulardagi suhbat ma'nosini o'qib tushuna olishi;
- Har hil sohaga oid (Ijtimoiy, iqtisodiy va shu kabi) turli murakkablikdagi jurnal va gazeta maqolalarni o'qib tushuna olishi;
- Matnda berilgan turli yozma ko'rsatmalarni tushunishi va uni bajara olishi hamda murakkab tushunchalardan va terminlardan iborat bo'lgan, o'z kundalik sohalariga oid matn va hisobotlarni o'qib tushuna olish;
- Turli idiomatik va og'zaki nutq iboralarini tushuna olishi lozim;
- Imtihon topshiruvchilarga o'qish ko'nikmasi sinovi davomida quyidagi o'qish ko'nikmalari va strategiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi:
- Matnning umumiy ma'nosini tushunish uchun o'qish;
- Matndagi muayyan detallarni topish uchun o'qish;

- Matndagi asosiy ma'nolar va ularni yorituvchi dalillarni topish uchun o'qish;
- Berilayotgan taklif yoki ma'noni anglash uchun o'qish;
- Berilgan ma'lum bir so'zning ma'nosini aniqlash uchun o'qish;

## **Yozish ko'nikmasi**

Ushbu qismning maqsadi imtihon topshiruvchi talabning turli janrdagi matnlarni yoza olish ko'nikmasini C1 (CEFR)gacha bo'lgan darajada sinovdan o'tkazish va baholashdir.

### **Qo'yilgan maqsadga erishish uchun imtihon topshiruvchining:**

- Har hil sohaga oid turli murakkablikdagi matnlarni yoza olishi ;
- shaxsiy va qisman shaxsiy xatlarni, jumladan gazeta tahririyatiga xat kabilarni yozishi;
- turli maqsadga yo'naltirilgan insho turlarini (rasmiy uslub) jumladan;
- murakkab va abstrakt mavzularda, xat va yozishmalarni yoza olishi;
- turli yozma topshiriqlarni yozishi va turli manbalardan ma'lumotlarni jamlagan holda grammatik, leksik va uslubiy xatolarga deyarli yo'l qo'yilmagan insho yoza olishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

## **Nazariy bilimlar:**

Berilgan nazariy savollarga yozma javob berish, javobda 4 kurs davomida o'tilgan barcha nazariy fanlardan o'z fikr mulohazalarini tahlil qila olishi, shu jumladan,

**Nazariy fonetika** fanidan (Phonetics as a branch of linguistics. Phonetics and other disciplines. Vowel system of English. Vowel-consonant distinction. Consonant system of English. Syllable structure of English. Syllable theories. Syllable structure. Word stress in English. General characteristic of changes. Assimilation. Intonation in English. Intonation: definition, approaches, functions. The phonological aspect of intonation).

**Nazariy grammatika** fanidan (What does the term "grammar" mean? What is a morpheme? Parts of speech. Semantic types of the English nouns. Grammatical (syntactical) functions of the pronoun. Semantic classification of the verbs. Grammatical categories of the verbs. Grammatical (syntactical) functions of the adjective. Particles, conjunctions and prepositions. Syntax. Semantic types of sentences in Modern English) Leksikologiya fanidan (Subdivisions of Lexicology, Types of lexical meaning. Polysemantic and monosemantic words. Affixation. Prefix and suffix. The classification of antonyms. Synonyms and its types. Lexicography. Types of dictionaries. Borrowings in the English language. Phraseology and its classification. Neologisms and its types).

**Stilistika** fanidan (Style. Functional style. Scientific style. Official style. Publicist style. Lexical stylistic devices. Phonetic stylistic devices. Syntactic stylistic devices. Inversion, parallel construction. Directed speech. Proverbs and sayings).

**Qiyosiy tipologiya** fanidan (What does Comparative typology study? Comparative linguistics and Contrastive linguistics. Types of language. What is an etalon language? What are the four main purposes in studying Comparative typology? What is an agglutinative or agglutinating language? What are the allomorphic features of the English and Uzbek /Russian phonemes? What grammatical categories do verbs have in Modern English and Uzbek/Russian? Is the grammatical category of Gender of English and Uzbek pronouns expressed morphologically or some other ways? Is there the semantic structure of lexemes (phenomena of monosemy, polysemy and syncretism of lexemes (for example, Uzbek «uchun» always has a syncretic meaning of purpose and reason) the same in Modern English and Uzbek/Russian?).

Ushbu qismda bitiruvchining nazariy savollarni yozma ravishda bayon qilishiga qarab tilning nazariy jihatlarini qanchalik egallaganligi hamda bayon qilish uslubida C1 gacha bo'lgan darajada baholanadi. Unda:

- bitiruvchining tilni o'rganishda uning amaliy jihatlaridan tashqari nazariy aspektlarini tushunib uni turli maqsadlarda qo'llay olishi;
- tilda egallagan nazariy bilimlardan turli strategiyalaridan samarali foydalangan holda yetarli darajada tilni nazariy jihatlaridan egallagan ko'nikmalarini namoyish eta olishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

**5A111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi negizidagi  
5A111401-Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili)  
magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus  
(ixtisoslik) fanlaridan kirish imtihoni yozma ishlarini  
o'tkazish tartibi va baholash mezonlari**

Ixtisoslik fanlari bo'yicha magistraturaga kirish imtihoni "Yozma ishi" ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda 5 tadan savol va topshiriqlar aks ettiriladi. "Yozma ish" variantlarining birinchi savoli "o'qib tushunish (reading) topshirig'i bo'lib ushbu topshiriq uchun jami 30 ball ajratilgan. "Yozma ish" variantlarining ikkinchi savoli "insho (essay)" yozish bo'lib ushbu topshiriq 25 balli tizim asosida baholanadi. "Yozma ish" variantlarining uchinchi savoli "nazariy fonetika, nazariy grammatika, leksikologiya, stilistika va qiyosiy tipologiya" fanlari asosida tuzilgan 3 ta topshiriqdan iborat bo'lib, har bir topshiriq 15 balldan jami 3 topshiriq uchun 45 balli tizimda baholanadi.

Yozma ishni o'tkazish uchun uch (akademik) soat vaqt beriladi.

**Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishidagi har bir savoldan talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:**

**O'qib tushunish (reading) topshirig'i quyidagicha baholanadi:**

- berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob berilsa, savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **26-30 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, savolning mazmuni to'liq yoritilib javob berish jarayonida ba'zi hatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **22-25 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **17-21 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo'yilgan topshiriqlarning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 - 16 ball** oralig'ida baholanadi.

**Insho yozish (essay) topshirig'i quyidagicha baholanadi:**

Berilgan insho mavzusiga to'g'ri va to'liq javob berilsa, savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, insho yozish jarayonida grammatik birliklardan va insho yozish strukturasiidan to'g'ri foydalansa o'zlashtirish ko'rsatkichi **22-25 ball** oralig'ida baholanadi;

- Berilgan insho mavzusiga to'g'ri javob berilsa, mavzu mohiyati to'g'ri yoritilsa, insho yozish jarayonida grammatik birliklardan va insho yozish strukturasiidan to'g'ri foydalansa o'zlashtirish ko'rsatkichi **18-21 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan bo'lsa, grammatik birliklardan va insho yozish strukturasiidan to'g'ri foydalanmagan bo'lsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **14-17 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo'yilgan topshiriqlarning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 - 13 ball** oralig'ida baholanadi.

**“Nazariy fonetika, nazariy grammatika, leksikologiya, stilistika va qiyosiy tipologiya fanlari” asosida tuzilgan savollarga berilgan javoblar quyidagicha baholanadi:**

- berilgan har bir savolga to'g'ri va to'liq javob yozilsa, savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **13-15 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, savolning mazmuni to'liq yoritilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **10-12 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **7-9 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo'yilgan masalaning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 – 6 ball** oralig'ida baholanadi.

Ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 dan 100 balgacha** baholanadi (86-100 ball – a'lo, 71-85 ball – yaxshi, 55-70 ball – qoniqarli, 0-54 ball – qoniqarsiz).

**ESLATMA:** Kirish imtihoni jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan fbiturientlar yakuniy davlat attestatsiyasi baholar e'lon qilingan kundan e'tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Imtixon komissiyasi va talaba o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda qabul komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

### **Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Комил Жалилов. Exam skills for teachers and learners of English. Toshkent 2016.
2. Louis Rogers and Jennifer Wilkin, Dorothy E.Zemach (2012) Skillful 2. Reading and writing.
3. Scarry, S., & Scarry, J. The Writer's Workplace with Readings: Building College Writing Skills. Thomson Learning. Sixth Edition. 2010.
4. John and Liz soars. "New headway" (All levels) Oxford university.
5. Muminov A. English Lexicology. T.2006
6. Арнольд И.В. The English Word. M.,1986
7. Cannon G. Historical changes and English word-formation: New vocabulary items.-N.Y., 1986
8. Lewis N. Instant Word Power. N.Y.,1981
9. Galperin I.R. Stylistics. -M.: Higher School, 1977.
10. Азнаурова Э.С., Ашурова Д.У. Interpretation of literary text. -Т.: Ўқитувчи, 1990.
11. Бобоханова Т.А. Инглиз тили стилистикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1995

12. Гинзбург. Р.Й., Хидекель.С.С., Князева.Г.Й., Санкин.А.А.; A course in Modern English Lexicology., М.,1979
13. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. -М.: Высшая школа, 2004.
14. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. - М.: Наука, 1981
15. Кухаренко В.А. Практикум по стилистике английского языка. -М.: Высшая школа, 1986.
16. Кухаренко В.А. Интерпретация текста. -М.: 1988
17. Blokh M.Ya. A Course in Modern English Grammar. М.,2002
18. Iriskulov M.Kuldashev A. Theoretical Grammar of the English Language Т.,2008
19. Nino Kirkvialidze Theoretical Course of English Grammar Tbilisi 2013
20. Blokh M.Y. Theoretical Grammar of the English Language.- М., 2004
21. Ильиш Б.А. Structure of Modern English.-М., 1975
22. Abduazizov A.A. Theoretical Phonetics of Modern English. - Т., 2007
23. Sokolova M.A. English Phonetics. A Practical Course. - М.,1994
24. Peter Roach “English phonetics and Phonology” Cambridge University press, 2000, 2 nd edition
25. Leontyev V.T. Theoretical phonetics of English phonetics. –М., 1994
26. Буронов Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М., Высшая школа 1983.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Cambridge English skills Real Listening and Speaking 2 with answers and
2. Audio CD: Level 1-2
3. “Destination” (All levels) Malcolm Man/Steve Taylor.
4. Shread Dr.A. The words we use. Andre Deutch. L, 1981
5. Антрушина.Г.Б. Лексикология английского языка М., «Дрофа» 2006
6. Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. Л.: Учпедгиз, 1960.
7. Мусаев К. English stylistics. -Т.: Адолат, 2003
8. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of literary text. -Т., Tafakkur qanoti, 2013.
9. Кухаренко В.А. Seminars in style.-М.: Высшая школа, 1971.
10. Худяков А.А. Теоретическая грамматика английского языка.- М.,2007
11. Кобрика В.А. Теоретическая грамматика английского языка. - М.,2010
12. Sokolova M.A. English Phonetics. A Practical Course. - М.,1991
13. Vrabel. T.T Theoretical phonetics of English.- Ukraina., 2012
14. Буронов Ж. Инглиз ва узбек тиллари қиёсий грамматикаси. Тошкент, «Ўқитувчи» 1973.
15. Аракин В. Д. Сравнительная типология английского и русского языков. М, 1990.



16. Юсупов Ў. Инглиз ва ўзбек тилларининг чоғиштирма лингвистикаси.  
Тошкент, Академнашр, 2013